

TASVIRIY SAN'ATNING BOSHQA FANLAR BILAN FANLARARO INTEGRATSIYASI VA TA'LIM SOHASIDAGI TUTGAN O'RNI

Iskandarova Dilnoza Rozimbay qizi

Qoraqolpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani 68-maktab

Tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya : *Ushbu maqolada tasviriy san'at darslarining boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorligi haqida ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar : *tasviriy san'at, integratsiya, tabiatshunoslik, adabiyot darslari.*

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir, chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qat'iy nazar u go'zallikdan bahramand bo'lishi, undan zavqlanib dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanat asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm ishlashiga to'g'ri keladi. Rasm chizishni bilish, faqat rassomlar, dizaynerlar, me'morlar uchungina emas, o'qituvchilar, injenerlar, tibbiyot xodimlari, quruvchilar, agronomlar, harbiylar, olimlar uchun ham zarurdir. Ularning har biri o'z f'oliyatlarida rasm, sxemalar, diagrammalar, eskizlar orqaliso'z bilan tushuntirib bo'lmaydigano'z g'oya va fikrlarini tasvirlab ko'rsatishga harakat qiladilar. Lekin bu tasviriy, amaliy va me'morchilik san'atlaridan chuqur va keng bilim va malakalar berish kerak ekan, degan ma'noni anglatmaydi. Tasviriy san'at o'quvchilarda his-tuyg'ularini va badiiy tafakkurini faollashtirishning qo'shimcha vositasi hisoblanadi. Tasviriy san'at orqali adabiyot, tarix, tabiatshunoslik fanlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishiga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, badiiy asar bilan tanishish o'quvchilarni go'zallikni ko'ra olish, ilm-fan bilan tanishtirishning pedagogik yo'naltirilgan jarayoniga xizmat qiladi. Bu huddi san'at kabi hayotdan ajralmas bo'lib va ijod mahsuli hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan tabiatshunoslik darslaridagi o'quv amaliy mashg'ulotlari qatoriga quyidagilar kiradi: "Mamlakatimiz tabiatining xususiyatlari, o'simlik va hayvonlari, foydali qazilmalari, madaniy yodgorliklari, yashash joyidagi o'simliklarni o'rganish; jonli va jonsiz tabiat yaratgan noyob diqqatga sazovor joylar: g'orlar, sharsharalar, qoyatoshlar, daralar, buloqlar, o'simlik va hayvonlar haqida ma'lumotga ega bo'lish; mahalliy tabiat haqidagi bilimlarni chuqurlashtirish; tabiat haqidagi bilim insonga undan oqilona foydalanishga, uni o'zgartirishga I qanday imkon berishini ko'rsatish[1]." Tasviriy san'at o'qituvchiga tabiatshunoslikni yanada hissiy, jonli va hayoliy tasavvur qilishga yordam beradi. Animalistik, manzara, natyurmort kabi janrdagi asarlar bolalarning tabiat go'zalligini teran his etishiga yordam beradi.. O'qituvchi N.

Kashina, P. Konchalovskiy shuningdek, R. Ahmedov, G'. Abdurahmonov, A. Ikromjonov va boshqa rassomlar tomonidan chizilgan natyurmortlardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanishi mumkin. Boshlang'ich sinflar uchun tabiatshunoslik darsligida, masalan, "Gulli o'simliklarning rasmlarini chizing, globus rasmini chizing va shunga o'xshash "vazifalar mavjud. Demak, mavzuning o'zi tasviriy san'at sari borib, naturani kuzatishga, u orqali chizish bilan badiiy didni rivojlantirishga chorlaydi. Ma'lumki, tabiatshunoslik tabiiy-matematik jarayonning alohida fanlari: geografiya, biologiya, fizika fanlarini o'rganish uchun zaruriy asos yaratuvchi fanlardan biridir. Darsda tasviriy san'at asarlardan foydalanish umumta'lim fanlarini samarali o'qitish jarayoniga kirib borish uchun o'ziga xos ko'prikdir. Tabiat va uning go'zalligi ham tasviriy san'atni tushunish, anglash va sevishtga yordam beradi. Ona tabiatdagi ko'zga tashlanmas g'aroyib shaklli qoyatoshlar, daralar, g'orlar, sharsharalar, katta yoshli daraxtlar, buloqlarning ko'rinishi - shakl, hajm, ritm hamda rang uyg'unligini his qilishga o'rgatadi. Tasviriy san'at tabiat tomonidan yaratilgan jonli va jonsiz durdonalarning tuzilishi mantiqini tushunishga yordam beradi. Tasviriy san'atning boshqa fanlar bilan integratsiyasini amalga oshirishdagi muhim vazifasi o'quvchilarning aniq va tabiiy, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'rganish jarayonida idrok, diqqat va xotira (birinchi navbatda, hissiy va assotsiativ), tasavvur, tafakkurni faollashtirishdir.

Adabiyot darslarida ham o'qituvchi ko'pincha tasviriy san'atning grafika kabi turi bilan, xususan, kitob illyustratsiyasidan keng foydalanadi. Kitob grafikasi shuningdek, illyustratsiyalar adabiy asar matnini faol idrok etishga yordam beradi. O'quvchini asardagi ishlangan tasvirlarni uzoq vaqt esda qolishini ta'minlaydi, ulardagi badiiy qarashlarni shakllantiradi. Illyustratsiyalardagi jozibadorlik murakkab matnni sodda holatda tushunib olishga erishish imkonini beradi, bundan adabiyot ham, tasviriy san'at ham foyda ko'radi.

Tasvitiy san'at darslari o'qish, matimatika, biyalogiya, odam anatomiyasi geometriya va boshqa qator fanlar bilan bog'liqligini quyidagi misollar orqali kurishimiz mumkin. Masalan boshlang'ich snif o'qubchilariga matimatika fanlarini tushintirishda mevalar, gullar, hayvonlar va boshqa narsalarning rasimlari orqali tushintiradigan bo'lsak odam anatomiyasi darslarida inson qomati tasviridan foydalanishimiz mumkin va albatta bundau vaziyatda o'quvchilarning tasvitiy san'atni qanchalik o'zlashtirganligi katta ahamiyat kasb etadi. O'quvchi tasvitiy san'atni barcha fanlar bilan bog'lab o'rganib boradigan bo'lsa, kelajakda yaratadigan asarlarida mukammalikka erishishlari muqarrar ekanligi barchamizga ma'lum. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, ma'naviy olamni boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishi va kamolga yetishiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir. Demakki tasviriy san'atning hayot faoliyatimizda nechog'lik muhim o'rin tutushini bilar ekanmiz avvalo tasviriy san'atni umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda boshlang'ich sinflarda qanday tarzda o'tilayotganiga va fanni o'qitish metodikasiga ham katta ahamiyat qaratishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.U.Bobonazarov. "Qalamtasvir" o'quv qo'llanma. Navoiy, Aziz kitobxon. 2021
2. Baymetov B. "Qalamtasvir". Darslik 1-qism.- Toshkent, 2006.
3. S.Abdirasilov, N.Tolipov Rangtasvir. Innovatsiya ziyo, T. 2019
4. Muxtorqulova, R. (2023). ZULFIYAXONIM IJODINI O'RGANISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH. Models and methods in modern science, 2(4), 117-121.
5. Dustov S.R., Yusupov A.A., Azamkulov A. (2023). "Methodology Of Teaching Mathematics In Primary Grades". Journal of Pharmaceutical Negative Results, 7480-7485.